

Oy alla aytarmish.

QDPI magistranti O.Usmonova

*“Farzandlarimiz bizdan ko’ra kuchli , bilimli,
dono va albatta baxtli bo’lishlari shart”*

Karimov.I.A

Bugungi kunda boshlang’ich ta’lim rivojiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Uzviylashtirilgan DTS va o’quv dasturi (2010y) dan kelib chiqib, darsliklarning yangi avlodlari yaratilmoqda. Bu borada o’qish kitobi darsliklari alohida e’tiborga loyiqdir. Jumladan, 1-sinf o’qish kitobi darsligi, atrof – muhit, insoniy munosabatlar, vatanning o’tmishi va hozirgi kundagi hayoti haqidagi bilimlarni kengaytiradi, dunyoqarashlarini shakllantiradi va rivojlantiradi, ma’naviy- axloqiy, ekologik tarbiyasiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bu fikrimizni dalili sifatida darslikdagi she’rlarga e’tibor qaratish mumkin. Boshlang’ich sinflarda she’rni o’qiganda kichik yoshdagi o’quvchilar tabiat va jamiyat voqea hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega.¹ She’rni o’qish va tahlil qilish o’qituvchidan katta mahorat talab qiladi.

1-sinf “O’qish kitobi”² darsligida berilgan Odil Abdurahmon qalamiga mansub “Oy allasi” she’ri o’ziga xos ahamiyatni kasb etadi. O’quvchilarga she’rni o’rgatishdan oldin she’r muallifining hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar berilishi lozim. Odil Abdurahmon 1944 yilda Andijon viloyatining Qo’rg’ontepa tumanidagi Ma’murobod qishlog’ida tug’ilgan. Shoirning “Quvnoq bolalar”, “Salom quyosh”, “Oyga remont tusharmish”, “Ildiz nima deydi”, “O’zbeklar yurti”, “Miltiq otilmadi”, “Chandiqli kishi”, “Jalolobod tomonlarda” singari yigirmadan ortiq kitoblari chop etilgan.³ Odil Abdurahmon bolalar uchun juda ko’p she’rlar yozgan. Shular qatori 1-sinf o’qish kitobi darsligida berilgan “Oy allasi” deb nomlangan she’ri barcha o’quvchilar uchun sevimli hisoblanadi.

She’r 12 qatordan iborat bo’lib, 1-sinf o’quvchilariga tushunarli tarzda sodda 5 bo’g’inli barmoq vaznda ertaknamo usulda yozilgan. Misralarda jami

¹ Karima Qosimova, Safo Matjonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo’ldosheva, Sharifjon Sariyev. Ona tili o’qitish metodikas. Darslik. Toshkent: i. ”Noshir” nashriyoti. 2009 yil-B.61.

² T.G’afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva 1-sinf “O’qish kitobi”. Sharq” Nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2014

³ G. Boymurodova, X. Sattorova va boshqalar. O’qish: O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. Toshkent: ”Sharq” 2014 yil-B.113.

27 ta soʻz ishtirok etib, hech qaysi soʻz takroran ishlatilmagan. Bu albatta shoirning soʻz boyligi koʻpligidan dalolat beradi. Maʼlumki, xalq ogʻzaki ijodida ertak janri “Bir bor ekan, bir yoʻq ekan” degan jumlar bilan boshlanib oxiri yaxshilik bilan tugatiladi. Ushbu sheʼrda ham xalq ogʻzaki ijodiga xos anʼana yashiringan. Yaʼni, shoir “Oy ona emish”, “Alla aytarmish” jumalari bilan sheʼrni boshlab, aytilgan allaning soʻngida quyosh nurlaridan olam bahramand ekanligini ota timsolida tasvirlashga harakat qilgan. Sheʼrning sarlavhasida ham koʻchma maʼno mavjud. Ona allasi oy allasida oʻz ifodasini topgan. Xalqimiz azaldan bolajon xalq. Onalarimiz oʻz farzandlari uchun alla aytib, beshikdagi bolaga vatan tuygʻusini singdirishgan. Alla qoʻshigʻi beshik qoʻshiqlarining keng tarqalgan anʼanaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq yoki ellat yoʻqki, ularning tilida alla kuylanmasa... Ruslarda “bayki” yoki “bayushki”, turkmanlarda “huvdilar”, ozarbayjonlarda “lay-lay”, tatarlarda “alli-balli”, qoraqalpoqlarda “heyra-heyra”, turklarda “ninni”, forslarda “lolo”, nemislarda “wiegelied”, fransuslarda “bekceuse”, oʻzbek va tojiklarda “alla” va “allo” atamallari bilan mashhurdir. “Alla” soʻzining lugʻaviy maʼnosi ham allalash-ovutib avaylab uxlatishdan iborat.⁴ Alla qoʻshigʻi eng sehrli kuy ekanligi ushbu sheʼr satrlarida tasvirlashga harakat qilingan. Alla qoʻshigʻiga oid maʼlumotlar keying sinflarda ham “Xalq ogʻzaki ijodi” boʻlimlarida matn yoki sheʼriy tartibda oʻquvchilarga havola etilgan. Koʻrinib turibdiki, ushbu sheʼrda erkalash xususiyati mavjud. Oyning aytgan allasida onaning oʻz farzandini erkalab, “Oppogʻim, qunduz” deb uxlatishi gavdalantirilgan. Ushbu sheʼrni oʻquvchilarga oʻrgatishda, imkon qadar alla qoʻshigʻini jonli ijro etish, yoki texnik vositalardan foydalanib, kuyni eshittirish maqsadga muvofiqdir.

“Oy”, “Quyosh”, “Yulduz” singari obrazlar sheʼrning bosh qahramoni hisoblanishadi. Sheʼrda oy -onaga, quyosh-otaga, yulduzlar-farzandlarga oʻxshatilgan. “Oʻxshatish-tasvir obyektini boshqa narsa- hodisaga oʻxshatish orqali yorqin va boʻrttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi boʻlib, bunda oʻxshatilayotgan narsa- hodisalar uchun umumiy belgi xususiyatlarga tayaniladi.”⁵ Sheʼrda emish-aytarmish, yulduz-qunduz, tutdim-o-kutdim-o, bolam-olam soʻzlari bir- biri bilan qofiyadosh hisoblanadi.

“Oy allasi” sheʼrida oʻquvchi uchun notanish boʻlgan soʻzlarga izoh berilishi darkor. Masalan, “Koʻzim nurini senga tutdim-o” jumlasida ham koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan boʻlib, “Mehrimni senga berdim” maʼnoni anglatadi. Quyida izohlanayotgan soʻzlar ham oquvchi uchun notanish boʻlishi mumkin.

⁴ Oxunjon Safarov. Oʻzbek xalq allalari “Alla-yo alla” Toshkent: “Oʻqituvchi” 1999y-B. 9.

⁵ D. Qurbonov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lugʻati. Toshkent: “Akademnashr”. 2010 yil-B. 375.

Qunduz.1.Suvsarsimonlar oilasiga mansub, qimmatbaho mo'ynali sutemizuvchilar turkumi.2.Qunduz qosh yoki qoshi qunduz.Chiroyli, o'siq qora qosh.3.Yoqaga yoki, telpak jiyagiga tutilgan o'siq yungli har qanday mo'yna.

Bahramnd[f-omadli; sherik; foyda oluvchi; rohatlanuvchi]Bahra olgan; biror manfaat, foyda ko'ruvchi.*Olamda nimaiki bo'lsa, quyoshdan bahramand, unga intiladi.*⁶

She'r mazmuniga e'tibor qaratilganda, oy doimo yulduzlar bilan birga, ularga g'amxo'rlik qiladi.Ona ham doim bolalariga g'amxo'r, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanadi.Quyosh o'zining nurlarini erta tongdan kech kirguncha taratadi.Ota ham erta tongdan kech kirguncha el-yurt xizmatida bo'ladi.1-sinf o'quvchisi ushbu she'r bilan tanishib chiqqanda quyoshning nur sochishi, olamni yoritishi, issiqlik ulashishi, agar quyosh bo'lmasa kunduzi ham hammayoq qorong'u va sovuq bo'lishi, qolaversa, oy ham qorong'u zimistonni yoritib turishi haqidagi tasavvurlari mustahkamlanadi.Dars davomida she'rni o'qish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi.She'r oldin o'qituvchi tomonidan o'qib eshittirilishi lozim.So'ngra ommaviy jo'r bo'lib o'qitish, navbatma-navbat, zanjir usulida o'qitishdan foydalanish mumkin.She'rni o'qishda ifodali, rolga kirib, intonatsiya bilan o'qilsa, o'quvchilar she'riy nutqni oson va tez yodlab oishadi.Chunki, boshlang'ich sinflarda she'r tahlil qilinib, ifodali o'qish mashqi o'tkazilgach, she'rni yoddan aytib berish vazifasi topshiriladi.

Odil Abdurahmonning "Oy allasi" she'rini o'rganish natijasida, osmon jismlari quyosh, oy va yulduzlar haqidagi ilk tasavvurlarini boyitish bilan birga, atrofimizdagi olam fani bilan bog'liqlikni his etishlari mumkin.Yer sayyorasining ayrim mamlakatlari ustida quyosh nur sochib turgan paytda uning boshqa tomonlari qorong'u bo'ladi.Quyosh botganda esa, yulduzlar ko'rinadi.⁷Oyni kuzatganimizda ba'zan butun, ba'zan yarim ko'rinadi. Yer quyosh atrofida aylanganda oyning yarmi ko'rinmay qolishi mumkin.

Oy allasi she'rini o'rgatishda,mavzuga mos maqollar, she'r va qo'shiqlar bilan bog'lab o'rgatish tavsiya etiladi.1-sinf o'quvchisi charchab

⁶A.Madaliyev. "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi",Davlat ilmiy nashriyoti.Toshent: 2007 y-B. 197.

⁷M.Tillaboyeva, M.Xo'jayeva, M.Hakimova va boshqalar. Atrofimizdagi olam 1-sinf.Oqituvchilar uchun metodik qo'llanma. –Toshkent:"Extremum-Press",2014.-B.34.

qolmasligi uchun dam olish daqiqalari o'tkaziladi. Bu mavzuni tushuntirishda quyidagi qo'shiqdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har doim bo'lsin quyosh

Har doim bo'lsin osmon,

Har doim bo'lsin onam

Har doim bo'lay men

Shuningdek, darsning mustahkamlash qismida quyidagi maqollardan foydalanshmumkin: "Ona bilan bola - gul bilan lola", "Ota-bilak, ona-yurak", "Ota rozi-Vatan rozi"...

Odil Abdurahmon qalamiga mansub bo'lgan ushbu she'r 1-sinf o'qish kitobinig "O'zbekiston mening vatanim" bo'limi yuzasidan takrorlashda rebus sifatida o'quvchilarga havola etilgan. (19-bet)



Ushbu rebusni yechish orqali o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan she'r yana bir bor mustahkamlab olinadi. Rebus javobi: Oy ona emish, bolasi yulduz.

Tajribali pedagog ushbu she'rni o'quvchilarga o'rgatishda faqatgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan, qo'shimcha manbalardan ham foydalanib darsga yangi ma'lumotlar kiritib dars sifati va samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Bugungi kunda fan va texnika rivojangan. Yangi pedagogik texnologiyalar, multimediya darslari, slayd va ko'rgazmalar o'quvchi uchun darsni oson o'zlashtirishiga asos bo'ladi. She'rni o'rgatishda ota, ona va farzand bir oilani tashkil etishi, oila esa muqaddas tushuncha ekanligini yoritib berilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida "Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalaik davlat tomonidan muhofaza qilinadi"⁸ deb keltirib o'tilgan.

Bir so'z bilan aytganda, ota-onalar farzandlarining tinch-farovon yashashlari uchun tinmay mehnat qilib, oq yuvib, oq tarab, kelajakda aqlli, bilimli, komil farzand bo'lishlari uchun qayg'uradilar. "Oy allasi" she'rini

⁸ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012 yil. - B.12

o'quvchilarga o'rgatish orqali ota-onaga hurmatda bo'lish, ularni qadrlash, ishonchlarini oqlab, barkamol shaxs bo'lib yetishish tuyg'ularini shakllantirish bilan bir qatorda, osmon jismlari haqidagi tasavvurlari boyitilib, tabiatga nisbatan mehr, qiziqish o'yg'otishga turtki bo'ladi.